



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

yillar o'tgach, bola kata bo'lganida hatto unga zarar etkaza olmaydigan kichik itlar ham unda vahima uyg'otishi mumkin.

EMDR terapiyasi insonga ushbu xotiralarni qayta ishlashga yordam berish uchun mo'ljallangan. Bu jarayon REM uyqusiga o'xshaydi, faqat EMDR terapiyasi paytida terapevt mijozga bu ma'lumotni maqsadli qayta ishlashga yordam beradi.

Asosan, bu usul miyada axborotni qayta ishlash jarayonini "qayta boshlash"ga yordam beradi. Terapiyadan so'ng hodisa insonga, uning hayotiga, o'zini o'zi qadrlashiga va xatti-harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishni to'xtatadi. Bu odam nima bo'lganini unutadi degani emas, balki kamroq og'riqli munosabatda bo'ladi. Buni tanamiz jismoniy jarohatlarni qanday davolayotgani bilan solishtirish mumkin: ha, chandiq qolishi mumkin, lekin faqat xotira sifatida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shapiro, F. — The Role of Eye Movement Desensitization and Reprocessing (EMDR) Therapy in the Treatment of Emotional Trauma and Other Adverse Life Experiences. 2014

2. <https://www.emdr.com>

3. <https://emdr.ru>

4. <https://www.ptsd.va.gov>

SOG'LOM XULQNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Qarshiboyev Sardor Alisher o'g'li,

Zulfiyeva Sarvinoz Doston qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

sardorqarshiboyev9955@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'lom xulq tushunchasining psixologik mazmuni, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillar tahlil qilinadi. Sog'lom xulq – bu insonning jamiyatda qabul qilingan me'yor va qadriyatlarga mos, ongli va ijobiy yo'naltirilgan harakatlari yig'indisidir. Tadqiqotda shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri, oilaning tarbiyadagi roli, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining ta'siri, shuningdek, o'z-o'zini anglash, motivatsiya va emotsional intellekt kabi psixologik omillar yoritilgan.

Kalit so'zlar: sog'lom xulq, ijtimoiy psixologiya, xulq-atvor omillari, shaxs va jamiyat, oila tarbiyasi, emotsional intellekt, ijtimoiy muhit, psixologik rivojlanish, motivatsiya, axloqiy qadriyatlar.

Salomatlik psixologiyasi psixologiya fanining bir tarmog'i sifatida salomatlik bilan bog'liq hodisalarni o'rganishga qaratilgan. Uning qo'llaniladigan vazifalari quyidagilardan iborat: atrof-muhit sharoitida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlash, kuzatish, ro'yxatga olish, tahlil qilish, prognozlash va ulardan foydalanish.

Sog'likka ta'sir qiluvchi ko'plab omillar (tashqi - atrof-muhit ta'siri va ichki, insonning tipologik xususiyatlari bilan belgilanadi) mavjud. Ushbu omillarning umumiylikini tartibli tushunish tadqiqotchiga ularni aniqlash uchun mos psixologik usullarni tanlash imkonini beradi. "Salomatlik psixologiyasi" mavzusidagi adabiy manbalarni tahlil qilish asosida sog'liq yoki kasallik bilan bog'liqligi eng kuchli bo'lgan uchta omil guruhini shakllantirish mumkin.

Sog'lom xulqning shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Eng avvalo, oila muhitining bu jarayondagi roli katta. Ota-onaning farzand bilan qanday muloqot qilishi, qanday namuna ko'rsatishi, mehr va e'tibor darajasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oilada ijobiy munosabatlar hukm sursa, farzandda ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvor shakllanishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Ta'lim muassasalari, ayniqsa maktab va universitetlar ham sog'lom xulqni tarbiyalashda muhim omildir. O'qituvchining yondashuvi, darsdagi muhit, tengdoshlar guruhi bilan bo'lgan aloqalar orqali shaxsda ijobiy yoki salbiy xulq shakllanishi mumkin. Maktabda ijtimoiy-psixologik xizmatning faoliyati bu borada muhim o'rin tutadi. Shuningdek, keng ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli qadriyatlar va xulq namunalarini qabul qiladilar. Bu axborotlar ijobiy bo'lishi mumkin, ammo nazoratsiz holatda zararli xatti-harakatlarga ham sabab bo'lishi mumkin.[1]

Do'stlar va tengdoshlar guruhi ham sog'lom yoki salbiy xulqning shakllanishida katta rol o'ynaydi. Yoshlar ko'pincha guruh bosimiga tushib, o'z xulqini muhitga moslashtiradi. Ijobiy guruhlar sog'lom xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi, salbiy guruhlar esa zararli odatlarga undashi mumkin. Psixologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Shaxsning o'zini anglash darajasi, emotsiyalarni boshqarish qobiliyati, o'z-o'zini qadrlashi va motivatsiyasi sog'lom xulqning asosiy psixologik tayanchlari hisoblanadi. Shuningdek, stressga chidamlilik, muammolarni hal eta olish ko'nikmalari ham ijobiy xatti-harakatlar bilan chambarchas bog'liq.[2]

Sog'lom xulqning psixologik omillari insonning sog'lom turmush tarzini shakllantirish va unga amal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu omillar asosan shaxsning ichki dunyosi, fikrlashi, hissiyoti, ongli qarorlari va atrof-muhit bilan bo'lgan o'zaro aloqasiga bog'liq. Motivatsiya insonning sog'lom bo'lishga bo'lgan ichki istagini bildiradi. Bu sog'lig'ini asrash, uzoq umr ko'rish, faol va quvnoq hayot kechirish kabi maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Agar insonda kuchli motivatsiya bo'lsa, u sog'lom odatlarni shakllantirishga intiladi.[1]

Bilim va ongli yondashuv ham muhim rol o'ynaydi. Inson sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, gigiyena va ruhiy salomatlik haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsa, bu uni sog'lom hayot tarzini tanlashga undaydi. Shaxsiy mas'uliyat hissi insonning o'z sog'lig'i uchun javobgarlikni his qilishida namoyon bo'ladi. Bunday odamlar o'zini nazorat qilishga, zararli odatlardan voz kechishga va foydali xatti-harakatlarni tanlashga intiladi.

O'z-o'zini baholash va ishonch sog'lom xulqga erishishda muhim psixologik tayanch hisoblanadi. O'zini qadrlaydigan, o'ziga ishonadigan inson sog'lig'iga befarq bo'lmaydi, u o'zini ehtiyot qiladi va salomatligi haqida doimiy qayg'uradi. Stressni boshqarish qobiliyati sog'lom turmush tarzining ajralmas qismidir. Stressni boshqara olmagan insonlar ko'pincha zararli odatlarga (masalan, chekish, spirtli ichimliklarga

ruju qo'yish, haddan tashqari ovqatlanish) berilib ketishadi. Shuning uchun hissiy barqarorlik va stressga qarshi kurasha olish sog'lom xulqni saqlashda muhimdir.[3]

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ham katta ahamiyatga ega. Oila, do'stlar, sinfdoshlar yoki ishdagi hamkasblar tomonidan beriladigan ijobiy rag'bat va yordam insonning sog'lom hayot tarziga rioya qilishini osonlashtiradi. Yolg'izlik yoki salbiy ijtimoiy muhit esa aksincha, sog'lom xulqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, sog'lom xulqni odatga aylantirish ham psixologik jihatdan foydalidir. Agar sog'lom odatlar inson hayotining kundalik bir qismiga aylansa, ularni saqlab qolish va davom ettirish osonlashadi.[4] Bu esa ichki motivatsiyani kuchaytiradi va o'z-o'zini boshqarishni yengillashtiradi. Umuman olganda, sog'lom xulq psixologik barqarorlik, ongli tanlov, ijobiy munosabat va shaxsiy mas'uliyat orqali shakllanadi. Bu omillar birgalikda insonning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A.A. – Sog'lom turmush tarzi asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.
2. Karimova Z.T. – Psixologiya. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2020.
3. Nazarova M. va boshqalar – Sog'lom turmush tarzini shakllantirish asoslari. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2022.
4. G'ulomov S.S. – Tibbiy psixologiya. Toshkent: "Ilm Ziya", 2018.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ФИЛОСОФИЯ ТРУДА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

стр. преподаватель Колеген Гулбазар Батырханқызы

Международный Казахско-Турецкий Университет

Имени Ходжи Ахмеда Ясави

магистрант Мамырбек Рамазан Бахтиярулы

Международный Университет Информационных Технологий

kolegen.g@mail.ru

Аннотация: Статья посвящена философским и социальным изменениям труда в контексте развития искусственного интеллекта. Автор анализирует классические подходы к пониманию труда (от Аристотеля до К. Маркса и Х. Арендт) и показывает, что ИИ инициирует радикальное переосмысление сущности труда и роли человека. Среди основных рисков выделены кризис субъектности (смещение человека из позиции активного деятеля в объект управления), технологическая безработица (массовое вытеснение работников и рост неравенства), алгоритмическая несправедливость (усиление исторических предубеждений в решениях ИИ, подрывающее принцип равенства), а также «разрыв ответственности» (неясность того, кто отвечает за ошибки ИИ). Автоматизация рутины ведёт к обесцениванию труда, снижению мотивации и утрате смысла работы. Одновременно автор подчёркивает позитивные возможности: освобождение человека от однообразных задач создаёт условия